



THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FEATURES OF DETERMINING VALUE ORIENTATIONS AND THEIR IDENTITY IN YOUNG PEOPLE

Azim Kholmakhatov

independent researcher

National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: great-king@inbox.ru

ABOUT ARTICLE

Key words: motive, value, behavior, norm, life goal, component of, youth, self-identification, youth policy, elementary principles, personal disposition.

Received: 22.12.24

Accepted: 24.12.24

Published: 26.12.24

Abstract: This article analyzes the theoretical and methodological features of determining the value goals of youth and their uniqueness, and also reveals on the basis of theoretical concepts how their value goals are based on a set of values and motives in creating a social image of youth. In this sense, the importance of value goals in managing human behavior is also shown.

YOSHLARDA QADRIYAT MO‘LJALLARI VA ULARNING O‘ZIGA XOSLIGINI ANIQLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK XUSUSIYATLARI

Azim Xolmaxmatov

mustaqil izlanuvchi

O‘zbekiston Milliy universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

E-mail: great-king@inbox.ru

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: motiv, qadriyat, hulq-atvor, me‘yor, hayotiy maqsadning komponent, yoshlar, o‘z-o‘zini identifikatsiyalash, yoshlarga oid siyosat, elementar ustanovkalar, shaxsiy dispozisiya.

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlarda qadriyat mo‘ljallari va ularning o‘ziga xosligini aniqlashning nazariy-metodologik xususiyatlari tahlil qilinib, yoshlarning sosial qiyofasini yaratishda ularning qadriyat mo‘ljallari qanday motivlari va qadriyatlar majmuasiga asoslanishini nazariy qarashlar asosida ochib beriladi. Shu ma’noda, qadriyat mo‘ljallarning inson hulq-atvorini nazorat qilishdagi ahamiyati ham ko‘rsatib o‘tilgan.

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ЦЕННОСТНЫХ ОРИЕНТАЦИЙ И ИХ ИДЕНТИЧНОСТИ У МОЛОДЕЖИ

Азим Холмахматов

независимый исследователь

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

E-mail: great-king@inbox.ru

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: мотив, ценность, поведение, норма, жизненная цель, составляющая, молодежь, самоидентификация, молодежная политика, элементарные принципы, личностная диспозиция.	Аннотация: В данной статье анализируются теоретико-методологические особенности определения ценностных целей молодежи и их уникальности, а также раскрывается на основе теоретических представлений, как их ценностные цели базируются на совокупности ценностей и мотивов в создании социального образа молодежи. В этом смысле также показана важность ценностных целей в управлении поведением человека.
--	---

Kirish. (Introduction)

Ma'lumki, muayyan ijtimoiy guruhning sosial qiyofasini yaratish shu ijtimoiy guruhning sosial statusi rollari bilan birga qadriyatiy mo'ljallari, motivlarini aniqlashni ham talab qiladi. Shu ma'noda sosial qiyofaning ko'p qirraliligi turli qadriyatlar, an'analar, stereotiplarni qamrab olishi bilan izohlanadi. Ushbu jihatlar shaxsning jamiyatdagi o'rnini belgilab, uning hulq-atvorini muayyan qolipga solib turadi. T.Parsonsning ta'biri bilan aytganda: "har bir shaxs o'zining motiv va ehtiyojlariga maksimal darajada mos keluvchi rollarni bajarishga harakat qiladi" [1]. Ushbu motiv va ehtiyojlarning asosini shaxsning qadriyatiy mo'ljallari tizimi tashkil qiladi.

Qadriyat tushunchasi inson sosial hayotining asosiy omillaridan biri bo'lib, uni boshqa tushunchalar orqali ta'riflash adekvat mazmun ifoda etmaganligi tufayli, inson uchun qadriyatga ega ma'nolari bilan izohlash mumkin. Rus sosiologi V.P.Tugarinov qadriyat tushunchasining mazmunini ehtiyoj, manfaat, qiymat kategoriyalari bilan aloqadorlikda ochib beradi" [2]. Yoshlarning sosial qiyofasini yaratishda ularning qadriyatiy mo'ljallarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Inson faoliyati davomida uning motivlari bir emas, balki ko'plab qadriyatlar majmuasiga asoslangan bo'ladi. Shu ma'noda, qadriyatiy mo'ljallarning inson hulq-atvorini nazorat qilishdagi ahamiyatini V.A.Yadov boshchiligidagi o'tkazilgan sosiologik tadqiqotlarda ham tahlil etilganligi bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda". [3]

F.Znaneskiyga ko'ra, qadriyat tushunchasi narsa fenomen tushunchasidan farqlanadi.

Qadriyat su'bekativ bo'lib, u inson uchun biror ahamiyat kasb etadi[4].

T.Parsonsning ta'rifi ko'ra, qadriyat normativ standart bo'lib, u individning xususiy holatlarini qamrab olgan holda, sosial muhit bilan shartlangan hulq-atvor tizimi sifatida namoyon bo'ladi. O'z navbatida me'yor individ va jamoa uchun belgilangan hulq-atvor modeli hisoblanadi" [5]. Qadriyatlar tizimi shaxsning nisbatan barqaror jihati sanalib, ular inson hayoti davomida intiladigan ideallar va etalonlar bilan bog'liq bo'ladi. Qadriyatlar inson faoliyatini rejalashtirishga, uzoq muddat bir qolipda ushlab turishga sabab bo'ladi. Qadriyatlar inson hulq-atvorining asosiy jihatini, uning alohida hatti-harakatlarini belgilaydi. Bu ma'noda qadriyatlar shaxs motivatsiyalarini determinlashtiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi[6]. Qadriyatlar insonning tasavvurlari, dunyoqarashi, uning ijtimoiylashuv me'yorlarini belgilaydi.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar sharhi

O'zbekistonda yoshlar ishini tashkil etishda ma'naviy-mafkuraviy mexanizmlarni takomillashrtirish usullari tadqiq qilishga bir qator siyosatshunos olimlarning ilmiy ishlanmalarida yaxlit tarzda emas, balki alohida sohalar kesimida ochib beriladi. Jumladan, E.Yusupova [7], S.Abdunazarov [8], A.Xursandov [9], A.Jalilov [10], Sh.Agabayev [11], N.Turgunova [12], N.Saidkulov [13]larning monografiya, risola va maqolalarida mazkur masala chuqur tahlil etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Tadqiqot olib borish davomida tarixiylik, ob'ektivlik, abstraklikdan konkretlikka qarab borish, kauzal, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil singari umumilmiy va umumfalsafiy metodlardan foydalanildi.

Natijalar va muhokama (Results and Discussions)

Qadriyatlar tizimi asosan motiv va ehtiyojlar sohasi bilan bog'liq. Zero, aynan qadriyatlar yoshlarning qanday motivlar bilan bog'liqligini tushunishga imkon beradi. Qadriyatlar, motivlar, ehtiyojlar har qanday faoliyatda, shuningdek, shaxsning turmush tarzi, bo'sh vaqtni o'tkazish, sosial kayfiyat, oilaviy hayot singari turli jihatlari bilan munosabatida namoyon bo'ladi. Yoshlarning turli guruhlardagi faoliyati ularning qadriyat tizimini belgilaydi. Yoshlarning qadriyatiy mo'ljallarining o'ziga xosligi shundaki, ular o'zlari mansub bo'lgan axloqiy va boshqa sosial me'yorlarni yoqlash bilan birga ularga nisbatan norozilik kayfiyatini ham namoyon etadilar. Chunki qoniqmaslik holati yoshlarning asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Biroq shunga qaramay yoshlar turli ijodiy uyushma va guruhlarining a'zosi sifatida jamiyatdagi mavjud qadriyatlar tizimiga ta'siriga tushishga moyil bo'ladilar. Bu hol ularning emosional ta'sirchanliklari bilan izohlanadi. Bundan tashqari yoshlar faoliyatini namuna sifatida ko'rsatish, ularni turli mukofot va grantlarga jalb qilish jamiyatdagi dominant qadriyatlar bilan

murosa qilishga undaydi. Lenton mazkur holatni “hayotiy maqsad”ning komponentlaridan biri deb ataydi. Ushbu sosial maqsad qaysidir ma’noda biologik impulslar bilan ham bog‘liq. Biroq bu ma’noda biologik impulslar muhim ahamiyat kasb etmaydi” [14].

Yoshlarning jamiyatdagi statusi turli spektordagi qadriyatlar tizimini taqazo etadi. U nafaqat muayyan qadriyatlar tizimiga ega bo‘ladi, balki o‘z faoliyati davomida mazkur tizimning tashuvchisi bo‘lib ham xizmat qiladi. Hohlaydimi yo‘qmi, uning shaxsiy qadriyatlari birinchi navbatda uniga hayotiy mo‘ljallariga ta’sir qiladi.

Bundan tashqari qadriyatlar individ hulq-atvorini va intilishlarini bevosita boshqarishga qaratilgan ijtimoiy ideallar bilan ham bog‘liq tarzda namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, qadriyatlar o‘zaro aloqadorlik kasb etadi. Bu aloqadorlik ikki xil ko‘rinishda namoyon bo‘ladi: birinchidan, qadriyatlar ahamiyatlilik darajasiga ko‘ra taqsimlanib, ular ierarxik tuzilma hosil qiladi. Ikkinchidan, ushbu qadriyatlar o‘zaro uyg‘un, bir-birini to‘ldirish bilan birga, mo‘tadil, hatto o‘zaro zid, qarama-qarshi ko‘rinishda ham namoyon bo‘ladi.

Har bir ierarxik tuzilmada bo‘lgani kabi ijodkorlar ning qadriyatlar tizimini quyidagi darajalarga ajratish mumkin:

1. G‘oyat darajada ma’qul ko‘riladigan, lekin doim ham amal qilinmaydigan qadriyatlar;
2. Normal deb hisoblaniladigan hamda ko‘p hollarda amal qilinadigan qadriyatlar;
3. Me’yoriy bo‘lmagan, qoralaniladigan shuningdek, axloqsizlik, jinoyat sifatida baholaniladigan qadriyatlar.

Ba’zi qadriyatlar legitim, majburiy bo‘lib, standart sifatida qabul qilinadi hamda ularning vositasida muayyan maqsad amalga oshiriladi. Ayrim qadriyatlar esa normadan tashqari, pragmatik qadriyatlar sifatida ko‘riladi.

Yoshlarning jamiyatda faol bo‘lishi ular shaxsiyatlari identikligining muhim ko‘rsatgichlaridan biri hisoblanadi. Yoshlarning faolligi o‘z navbatida u shug‘ullanadigan sohaning nufuzi bilan bog‘liq tarzda baholanadi.

R.Mertoning fikriga ko‘ra, individ faoliyatida kasbiy, ya’ni mashg‘ul bo‘lgan faoliyat turi orqali muvaffaqiyatga intilish belgilangan rolni a’lo darajada bajarishga imkon yaratadi[15]. Merton o‘zining mazkur yondashuvida ilmiy ijod bilan mashg‘ul yoshlarni nazarda tutadi. Biroq, bizningcha ushbu fikr barchaga taaluqli sanaladi.

Yoshlarning kitobxon va o‘quvchilarga namuna, etalon bo‘lishi uchun o‘zidagi avtoritet uyg‘otuvchi xususiyatlarini aniq bilishi va ularni takomillashtirib borishi lozim. Amerikalik psixolog D.J.Brunerning fikricha, yoshlarning nufuzi, ularga taqlid qilayotgan, intilayotgan kishilarning miqdori bilan belgilanadi. Sosiologiyaga oid ingliz lug‘atida: “Agar hokimiyat individ yoki guruhning hohishiga qarshi o‘z irodasini amalga oshirish bo‘lsa, u holda avtoritet

kishilarni bo'ysundirishga qaratilgan hokimiyat turi sanaladi. Insonlar ushbu hokimiyatni legitim hisoblaganlari uchun uning buyruqlariga bo'ysunadilar" deb ta'kidlangan.

Shu ma'noda Veyberning umumsosiologik nazariyasi yoshlarning avtoritetga intilishlarini tahlil qilishga imkon beradi. Legal rasional hamda an'anaviy faoliyatni belgilovchi status va rollar jamlanmasini amalga oshirishda namoyon bo'ladi. Xarizmatik avtoritet esa noodatiy, o'ziga xos shaxs ekanligini ifodalaydi. Bunday avtoritetga ega bo'lgan yoshlarning hatti-harakati ko'pincha odatiy hulq-atvorlari standartlarga mos kelmaydi.

O'z-o'zini identifikasiyalashni ham yoshlar statusining muhim jihatlaridan biri sifatida ko'rsatish mumkin. Agar yoshlar undan kutilgan hulq-atvor modeliga mos kelmasa, o'zini noqulay his qiladi va o'z imkoniyatlaridan to'la foydalana olmaydi. "Tabiiyki, bu hol o'z-o'zini identifikasiya qilish jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. O'zini identifikasiya qilish bilim va malakasini oshirishga, iste'dodni o'sishiga, o'z ustida uzluksiz ishlashga turtki beradi.

Yoshlarning individual holatiga bog'liq tarzda o'z bilimi va iqtidorini oshirish jarayonini uch xil ko'rinishda tahlil qilish mumkin" [16]:

1. O'zlikni anglash jarayonida aniqlangan shaxsiy kamchiliklarni bartaraf etish;
2. O'zidagi iste'dodni qaysi sohaga yo'nalganligini aniqlash;
3. Statusga mos keladigan shaxsiy sifatlarini yanada takomillashtirish.

Fan texnologiyalari taraqqiy etgan zamonaviy jamiyatda har qanday yosh o'z bilim va iste'dodini uzluksiz, rejali bir maqsadga yo'naltirgan tarzda rivojlantirib borishi talab etiladi. "Bundan tashqari o'z-o'zini nazorat qilish hamda o'z-o'zini baholash har qanday yoshni bilim va iste'dodini oshirishga, madaniy, intellektual, ma'naviy, axloqiy jihatdan yuksalishga imkon beradi" [17].

Jamiyatda yoshlar statusining nufuzi shug'ullanishga motiv uyg'otadi. Shuningdek yoshlar faoliyati istiqboli, uning ijobiy baholanishi ularning hulq-atvorini muayyan darajada standartlashishga imkon yaratadi. Bu ma'noda yoshlarning sosial qiyofasini yaratishda ularning motivlarini tahlil etish ham katta ahamiyatga ega. Masalan kasbiy yoki ijodiy faoliyatga qiziqish asosiy motivasiya beruvchi omillardan biri sanaladi. Bu o'rinda muayyan kasb yoki ijodiy faoliyatning jamiyatdagi ahamiyati, nufuzi, istiqboli, iqtisodiy imkoniyatlari va boshqa ko'rsatgichlar motivasiyaga sabab bo'ladi. Bu o'rinda motivasion soha muayyan faoliyatga yo'naltirish, shu faoliyatga oid hulq-atvor modellarini shakllantirish funksiyasini bajaradi. Motivasion soha muayyan faoliyat vujudga kelishidan oldin uning hulq-atvor standartlarini shakllantiruvchi, shuningdek, shu faoliyatdan keyin ham, faoliyatga oid hulq-atvor modellarini saqlab qoluvchi omil sifatida mavjud bo'la oladi.

Bu mutanosiblik aksariyat hollarda moddiy yoki ma'naviy rag'bat ko'rinishida bo'ladi. Faoliyat yoki hulq-atvorga ta'sir ko'rsatish stimuli ongli tarzda yoxud, shaxs tomonidan o'zlashtirilgan bo'lishi lozim. Bu o'rinda sosial motivlarni emosiya, maqsad, ustanovka kabi psixologik holatlardan ajratib bo'lmaydi. Kuch va qat'iyat sosial motivlarning asosiy sifatlari sanaladi.

Yoshlarning motivasion sohasini o'rganish ular faoliyatining samaradorligini oshirishga imkon beradi. Yoshlarning sotsial qiyofasini yaratishda ularning mehnat faoliyatiga, motivlariga o'zlari tomonidan berilgan baho asosiy xususiyatlardan biri sifatida qabul qilinadi

Motivasiya jarayoni individning hatti-harakati va faoliyati davomida amalga oshadi. Bu ma'noda motivasiya ko'plab fanlarning ob'ekti hisoblanadi. Sosiologiyada turli ijtimoiy guruhlarining emperik o'lchovlar bilan qayd etilgan tipologik hatti-harakati va motivlari, shuningdek, ularning ob'ektiv qonuniyatlari hamda xulq-atvorni boshqarish mexanizmlari predmet sifatida o'rganiladi. "Motiv", "ehtiyoj", "manfaat", "ustanovka" tushunchalarining o'zaro aloqadorligi ijtimoiy fenomen sifatida etarlicha tadqiq etilmagan. Aksariyat tadqiqotchi olimlar motivlarning shakllanish sabablari hamda mazmun mohiyatini o'rganarkanlar, ularning tarkibiga ehtiyoj, tashqi ta'sir kabi tushunchalarni ham kiritadilar.

Shu ma'noda yoshlarning o'z faoliyatlariga nisbatan munosabatlarini kasbiy, mehnat motivlari orqali ham tahlil qilish mumkin. Mehnat motivlarini o'rganish quyidagi mezonlarni nazarda tutiladi:

1. Qaror qabul qilish jarayonida sub'ektiv holatlarni aniqlashtirish hamda shart-sharoitni tanlash harakatini amalga oshirish;
2. Shaxsiy yoki ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ustanovkalarning amalga oshishiga qaratilgan motivasion hatti-harakatlarni batafsil tahlil qilish;
3. Motivasion jarayonlarning predmetli tomonlari, ya'ni inson hulq-atvorining yo'nalganligi hamda mantiqiy izchillikni taqazo etuvchi sub'ektiv anglangan stimullarni tizimlashtirish;
4. Kasbiy guruhlarining turmush tarzi sharoitida dominantlashgan motivasion strukturalarni tahlil qilish;
5. Hayot faoliyatining turli bosqichlarida shakllangan barqaror stereotiplar va motivlarni o'rganish;
6. Shaxslararo munosabatlarda ajralib turuvchi dominant motivlarni belgilab olish;
7. Pozitiv orientasiyalarni shakllantirish maqsadida, individning shaxsiy despozisiyalari ta'sirida hulq-atvormotivlarini boshqarish metodlarini ishlab chiqish[18].

Yoshlarning jamiyatda samarali faoliyat yuritishida ushbu ehtiyojlarning quyidagi turlari

ko'p kuzatiladi:

- hurmatga loyiq bo'lish va mashhurlikka bo'lgan ehtiyoj;
- muvaffaqiyatga erishish, boshqalardan ajralib turishga intilish va yuksak marralarni egalashga bo'lgan ehtiyoj;
- maqsadga intilish, talabchanlik hamda o'z yutuqlarini namoyon qilish ehtiyoji;
- diqqat markazida bo'lish ehtiyoji;
- alturistik yo'nalganlik, oliyjanoblik, qat'iyatliqlik, o'z irodasini boshqalarga o'tkazish ehtiyoji;
- o'z-o'zini himoyalashga bo'lgan ehtiyoj;
- boshqalarga yordam ko'rsatishga bo'lgan ehtiyoj;
- qat'iy tartib intizomga rioya qilmaslik va ma'suliyatdan qochish ehtiyoji;
- o'z hatolarini muhokama qilishdan qochish, o'z xuquqlarini himoya qilish;
- mag'lubiyat va omadsizliklarni engish ehtiyoji;
- mustaqillikka, erkinlikka bo'lgan ehtiyoj;
- go'zallik va mushohadaga bo'lgan ehtiyoj;
- olam tartiboti haqida umumiy savollar berish hamda shu savollarga javob berish ehtiyoji[19].

Shuningdek, ijtimoiy ustanovka va shaxsiy dispozisiya ham individni muayyan hatti-harakatni amalga oshirishga ta'sir qiladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

Yuqoridagi mulohazalarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, qadriyatiy, kasbiy me'yorlarning ahamiyatlilik darajasi yoshlarning turli qatlamlarida turlicha namoyon bo'ladi. Bunda esa yoshlarning qadriyatiy mo'ljallari sub'ektiv mazmun kasb etishi bilan ham ifodalanadi.

Yoshlarning bugungi kunga mos qiyofasini yaratishda, ular qaysi qadriyatlarni birlamchi yoki ikkilamchi qadriyatlar sifatida qabul qilishlarini aniqlash g'oyat muhim. Qadriyatiy tizim motivatsion soha va ehtiyojlar bilan bog'liq bo'lib, ularni tahlil qilish yoshlarning qiyofasini aniq ifodalashda muhim o'rin tutadi. Yoshlarning nimani ma'qul ko'rishlarini bilish, ularning maqsadlariga qanday intilishlarini, ehtiyojlarini, ularni qondirish yo'llarini, turmush tarzini, qanday yo'nalganligini tushunishga imkon beradi. O'z navbatida ushbu bilimlar yoshlarni qo'llab-quvvatlashga, ularning o'z imkoniyatlaridan to'la foydalana olishlariga sharoit yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, yoshlarning qiyofasini o'rganish natijasida yurtimizda yoshlarning qadriyatlarga nisbatan munosabatini shakllanishida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Shu ma'noda yoshlar jamiyatdagi status va rollar, qadriyatiy motivasion tavsifga ega bo'lgan ijtimoiy guruh bo'lib, ularni o'rganish maxsus tadqiqotlarni olib borish, xususan ularning ijtimoiy qiyofasini yaratishni taqazo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent, O'zbekiston, 2021. – 258 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: "O'zbekiston", 2016. - B. 14.
3. И.И. Антонович. Толкотт Парсонс - основатель функционализма, создатель теории социальной системы // Современная американская социология. М., 2014. С.73.
4. Харчева В. Основы социологии. М., 2017. С. 127.
5. Г. Фотев. Флориан Знанецкий: гуманистическая социология // Современная американская социология. М., 2014. С. 51-52.
6. Парсонс Т. Функциональная теория изменения // Американская социологическая мысль. М., 2014. С.467.
7. Дробницкий О.Г. Мир оживших предметов. М., 2017. С.303-311.
8. Мертон Р.К. Социальная теория и социальная структура // Социологические исследования. 2012. №2. С. 119.
9. Сторер Н. Социология науки // Американская социология. М., 2012. С.254.
10. Словарь практического психолога. Минск, 2018. С.423-424.